

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI  
ISPAN TILI AMALIY VA NAZARIY FANLAR KAFEDRALARI



“KO'P TILLILIK VA MADANIYATLARARO MULOQOT: TAJRIBA  
VA MUAMMOLAR”

“MULTILINGÜISMO Y COMUNICACIÓN INTERCULTURAL:  
EXPERIENCIA Y PROBLEMAS”

«МУЛЬТИЛИНГВИЗМ И МЕЖКУЛЬТУРНАЯ  
КОММУНИКАЦИЯ: ОПЫТ И ПРОБЛЕМЫ»

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari  
2023-yil 23-oktabr

Ташкент  
2023

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI 2023-YIL 23-OKTABR

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI  
ISPAN TILI AMALIY VA NAZARIY FANLAR KAFEDRALARI**

**“KO‘P TILLILIK VA MADANIYATLARARO MULOQOT: TAJRIBA VA  
MUAMMOLAR”**

**“MULTILINGÜISMO Y COMUNICACIÓN INTERCULTURAL:  
EXPERIENCIA Y PROBLEMAS”**

**«МУЛЬТИЛИНГВИЗМ И МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ:  
ОПЫТ И ПРОБЛЕМЫ»**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari  
2023-yil 23-oktabr**

**TOSHKENT – 2023**

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman to'plami Ispan tili amaliy va nazariy fanlar kafedralari tomonidan 2023-yil 23-oktabrda "Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlangan. Unda professor-o'qituvchilar, tadqiqotchi va talabalar, shuningdek xorijlik mutaxassislarining ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqotning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari aks etgan maqola va tezislari jamlangan.

#### **Mas'ul muharrirlar:**

**Jamoliddin YOQUBOV** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

**Adilbek XALILLAYEV** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti dekani, PhD

**Dilrabo BAXRONOVA** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,  
DSc

**Aziza SHAMAXMUDOVA** – Samarqand davlat chet tillar instituti professori,  
DSc

#### **Tahrir hayati:**

**I.Turamuratova** – O'zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi mudiri, PhD,  
dotsent

**R. Turdiqulova** – O'zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Z. Achilova** – O'zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**N. Sabirova** – O'zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

**S.Anarboyeva** – O'zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni va O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirinig 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida tashkillashtirilgan.

ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, o'quvchi, kitobxon tomonidan bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan,

qiz~gul: Bu qiz ham birovga ketadigan gul, Ushlab qololmagay na zar, na tillo. Mendan-da mehribon kimsa bo'lar ul– Mevdan-da vafodor chiqar ul illo. (“Bu o'g'il meniki emas aslida...” she'ridan)

hayot~yo'lak: Voajab, bul qadar yolgizlik nega, G'aroyib bu hayot – biz o'tar yo'lak. Hech kim, hech narsaga men bo'lmam ega, Sevgilim, senga o'z ishqimdan bo'lak. (“Bu o'g'il meniki emas aslida...” she'ridan)

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida matniy sinonimlar shu darajada ko'p va rang-barangki, ular shoira ijodida quyma misralarning yuzaga kelishini ta'minlovchi vositalardan biriga aylangan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.— Тошкент: Фан, 2006.
2. Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. — Тошкент: Фан, 1993.
3. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. — М., 1986.— С.5.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. — Самарқанд: Зарафшон, 1992.
5. Бахронова Д. Лингвокультурные особенности зооморфных фразеологических единиц // Вестник ЧелГУ. 2016. №9 (391). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturnye-osobennosti-zoomorfnyh-frazeologicheskikh-edinit>
6. Бахронова Д. К. Антропоморфизмларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. — Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2018. — 100 б.
7. Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. // Хорижий филология, 2019. — №3. — Б. 62-68.

#### **NUTQIY MULOQOTDA SUKUT HODISASI**

**Dilorom Nigmatovna Yuldasheva**, Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori, pedagogika fanlari nomzodi

**ANNOTATSIYA** Mazkur maqolada tilning lingvopragmatikani amalga oshirish vositasi sifatida tibbiy evfemik ma'nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi verbal (sinonimiya, graduonimiya, antonimizasiya, perifraza, evfemizasiya) va noverbal (sukut) birliklari tahlilga tortilgan.

**Tayanch so'zlar:** *sinonimiya, graduonimiya, antonimizasiya, perifraza, metafora, evfemizatsiya, sukut*

Kishilik jamiyatidagi har qanday faoliyat ijobiy amaliy qiymati bilan ahamiyatli. Til va uning hosilasi bo'lmish nutq kommunikativlik, ekspressivlik, akkumulyativlik bilan bog'liq faoliyat bo'lganligi uchun uning natijasi ham nutqning ta'sir kuchi, nutqdan ko'zlangan maqsadga erishilganlik bilan xarakterlanadi. Nutqiy muloqot lisoniy imkoniyatlarning muayyan moddiy shaklda shunchaki voqelanishidan farqlanishi ma'lum. Nutqiy muloqotga situativlik xos, shuning uchun uning shakllari ham, ifodaviyligi ham serqirra.

Bugun o'zbek tilshunosligida **lingvokognitologiya** yangi yo'nalish sifatida tadqiq ishlarini olib bormoqda-ki, unda lisoniy birliklarning kognitiv xususiyatlarini aniqlashga kirishilgan. Milliy til va milliy tafakkur mushtarakligidan kelib chiqqan holda har bir lisoniy hodisaning kognitiv, ekspressiv, akkumulyativ jihatlarini tekshirish mazkur yo'nalishning asosiy vazifasiga aylangan. Zero, o'zbek muhitida ham tilni o'z sohibi bilan birga ijtimoiy muhit, madaniyat, milliylik kabi omillar mushtarakligida tahlil etishni davr taqozo etmoqda.

Har qanday tilning boyligi o'sha til birliklarining qo'llanilish imkoniyatlari darajasi bilan o'lchanadi. Dunyo tillari ichida **o'zbek tili** tilning asosiy funksiyalari – kommunikativ, ekspressiv hamda akkumulyativ vazifalarini bajarishda, ya'ni rang-barang nutqiy voqeliklarni yuzaga chiqarishda, butun olamning o'zbekcha lisoniy manzarasini yaratishda o'ziga xos keng imkoniyatlarga ega. Buni mazkur tilning axborot berish va axborot qabul qilish (lokutiv), muayyan muloqot nutqida tinglovchiga emotsional-ekspressiv ta'sir ko'rsatish (lingvopragmatik), yozma

manbalarda biror voqelikni, predmetlikni yoki harakat-holatni tasvirlash yoki tavsiflash (simvolik) usullarida aniq kuzatish mumkin.

Til va uning voqeligi bo‘lmish nutq shunchaki gapirish yoki nimanidir yozib qo‘yish emas. Til insonning, qolaversa, butun boshli xalqning madaniyati, ma’naviyati, uning tarbiyalanganlik darajasini ko‘rsatuvchi oyna hisoblanadi. Biz kundalik hayotimizda ma’lum bir voqelik haqidagi axborotni, shuningdek, shu voqelikka bo‘lgan munosabatimizni, hissiy kechinmalarimizni ifodalashda turli lingvistik yoki paralingvistik vositalardan foydalanamiz. Zero, voqelikni ifodalashda bir qancha usullar mavjud bo‘lib, ular kommunikativ intensiyaning yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Tilshunoslikda kommunikativ intensiyaning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi sinonimiya, graduonimiya, antonimizasiya, perifraza, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, frazeologizm, evfemizasiya, epitet kabi bir qancha hodisalar mavjudligi tilshunoslarga yaxshi ma’lum. Jumladan, **sinonimlar**, shaklan har xil, ammo aynan bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan birliklar sifatida nutqni boyitib turadi. Lug‘aviy ma’nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo‘lgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemalararo munosabatdir. Masalan, *kasal* (arabcha so‘z) – *bemor* (forscha so‘z) – *notob* (forscha so‘z) – *betob* (forscha so‘z) – *nosog‘* (forscha so‘z) – *xasta* (forscha so‘z).

Ba’zan bu so‘zlarga ma’nodosh sifatida *tani xasta* birligi ishlatiladiki, u *bemor* yoki *kasal* so‘zlariga nisbatan ma’noni ta’sirliroq ifodalaydi. *Yaratgan egam, sendan qalbi ko‘r, qalbi bemorlarga va tani xastalarga shifo berishingni so‘raymiz. Bizni bu dardlardan yiroq qil!*

**Graduonimik** lug‘aviy birliklar o‘zaro ma’noviy munosabatiga ko‘ra ma’lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma’lum. Mazkur omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, *bo‘lmag‘ur* (holat) – *be‘ma’ni* (odat) – *noma‘qul* (farzand) – *nodurust* (yumush) – *tuban* (kishi) – *jirkanch* (jinoyat) – *rasvo* (ko‘rinish) – *yaramas* (odat) – *razil* (odam) – *qabih* (ish). Ba’zan diskursdagi sukut

qabih darajasidan ham yuqorida turadi, kontekstda anglashiladi. Masalan, *Janozada u qanday odam ekanligi so'ralganda, Diyorbekning yolg'onga tili bormadi, yerga qaradi. Ha, bugun so'zsiz yotgan bu odamning qilmishlarini qabihlik deyish maqtov bo'lardi.*

*Bo'lmag'ur* leksik birligida yaramaslik yoki jamiyat belgilab qo'ygan odob-axloq me'yorlaridan, insoniy fazilatlaridan chekinish holatini ko'rsatuvchi belgining pastroq darajada ifodalanishi kuzatiladi. Masalan, *Sohada shifokorlarning bemorlar sog'ligiga befarq bo'lishi, xodimlarning korrupsiyaga berilishi kabi bo'lmag'ur holatlar kuzatilganligini inkor etib bo'lmayapti. Shifokorning bemordan nimanidir tama qilib turishidek bo'lmag'ur holatni ko'rgan emasman.* (<https://twitter.com>)

*Razil* yoki *qabih* leksik birliklarida esa sanab o'tilgan illatlar belgisi yuqori darajada ekanligini kuzatamiz. Masalan, *Xullas, shifokor to'g'ri odam bo'lganligi uchun bu razil odamlarni o'zidan uzoqlashtiribdi.* (<https://sultanrabat>) ...*Nasiba opa avval bolalar xonasiga, keyin jonlantirish bo'limiga kirib chiqdi. Bola yerda ham, ko'kda ham yo'q, izziz g'oyib bo'lgan edi. Ertasi kuni tongda xiyobonni tozalashga kelgan farrosh o'rindiqlardan birida sovuqdan muzlab qolgan chaqaloq jasadini topdi. Bu "mehribon" shifokorning qabih ishi edi...* (<http://darakchi.uz/>)

Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo'yoqchilar birgina qora rangning hatto o'ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo'lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, *shifo–davo – malham* kabi [3].

**Antonim** leksemalar asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisaning in'ikosi bo'lgan qarama-qarshi tushuncha yotadi. Masalan, *Yurtimizda tajribali shifokorlar ko'p. – Umrim bino bo'lib bunday no'noq do'xtirni ko'rmagan edim.*

**Perifrazalar** nutqda o'z nomiga ega bo'lgan denotatni baholovchi, bo'yoqdorlik asosida qayta nomlovchi birliklardir. Masalan, *Hozirgi tahlikali kunlarda, butun dunyo ahli ko'rinmas yov bilan kurashayotgan bir darvrda, ayniqsa, jonlarini garovga qo'yib, betoblarga yordam ko'rsatayotgan*

*shifokorlarning sharafliligi va mashaqqatli kasbini yana bir bor madh etish ayni muddao bo'lsa kerak. (<http://uchildiz.uz/>) Salomatlik – tuman boylik, degan hikmat zamirida olamcha ma'no mujassam. Inson sog'lom bo'lsa hayot tatiydi, baxt tatiydi. Zamondoshlariga ana shunday baxt ulashayotgan salomatlik posbonlariga hamisha omad tilab qolamiz. (<http://uchildiz.uz/>)*

Dunyoda mutaxassisliklar ko'p. Shulardan biri shifokorlikdir. Butun yer shari aholisi pandemiya holatini boshdan kechirgan paytlarda bu kasb egalari har qachongidan ko'proq ehtiyoj sezildi. Inson omili bosh masalaga aylandi. Zero, inson omili, avvalo, uning jisman, ruhan salomatligi bilan bog'lanishi sir emas. Buyuklarimiz bejizga aytishmagan: “Sog'lom inson tabiatning eng noyob bo'lagidir”. Balki shu sabablidir boshqa kasblarga (masalan, o'qituvchilik, murabbiylik yoki muhandislikka) nisbatan shifokorlik kasbi bilan bog'liq tibbiy metaforalar, tibbiy o'xshatishlar, tibbiy frazeologizmlar yoki tibbiy evfemizmlar o'zbek nutqida ko'proq uchraydi. Zero, hayotda ham “bitta mohir vrachning tajribasi ko'pchilik jangchi-askarlar mahoratiga teng”. (Gomer)

O'zbek nutqida tibbiy evfemizmlar eng ko'p uchraydi. Bunday birliklarni nutq egalari o'zi nutqiy sharoitga moslab yasab olishaveradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nutqqa ta'sirchanlik va yoqimlilik bag'ishlovchi, aytilmoqchi bo'lgan axborot (fikr, mulohaza)ni yumshoq va odobli qilib ifodalashga xizmat qiluvchi birliklar **evfemizmlar** sanaladi. Evfemizmlarda qo'pol, beadab, ta'qiq so'z yoki ibora madaniy shaklda pardali qilib aytiladiki, bu hol, bir tomondan, nutq madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zbek xalqining milliy o'zligi bilan aloqador. Aytish joizki, muayyan nutqiy sharoitda sukut ham evfemik ma'noni yuzaga chiqara oladi.

Ha, «yaxshi gapirmoq», «silliq so'zlamok» ma'nolarini beruvchi *evfemizm* atamasi muloqot jarayonida so'zlovchining nutqini qo'pol, madaniyat doirasidan tashqaridagi so'zlarni qo'llashdan yoki tinglovchining «ko'ngliga tegishi mumkin» bo'lgan noqulay so'zlarni ishlatishdan saqlash bilan bog'liq, ammo bu evfemizmlar qo'pol, noqulay ma'noni beruvchi so'z ifodalagan mantiqni bermaydi degani emas. Zero, evfemizm ifodaga ijobiy yondashuv orqali yuzaga keladi [1; 2].



Kuzatishlarimiz ko'rsatadiki, muayyan nutqiy sharoitda evfemik ma'noni yuzaga chiquvchi sukutdan muayyan kasb egalari, ayniqsa, yozuvchi va shoirlar ko'proq foydalanadilar. Demak, nutqiy muloqotda sukut hodisasiga verbal birliklarni kompensatsiyalash xususiyatiga ega birlik sifatida qarash lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Mahmudov N. Termin, obrazli so'z va metafora// O'TA.– T., 2013. – №4.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2020. – 555 b.  
<http://yuldasheva.buxdu.uz/>
3. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. Impact Factor (SJIF 20 20= 6.156) “American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal. – Pag.87-95.  
[https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020\\_11\\_12-AJR\\_11.pdf](https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020_11_12-AJR_11.pdf)
4. Бахронова Д. Лингвокультурные особенности зооморфных фразеологических единиц // Вестник ЧелГУ. 2016. №9 (391). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturnye-osobennosti-zoomorfnyh-frazeologicheskikh-edinit>
5. Бахронова Д. К. Антропозоморфизмларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2018. – 100 б.
6. Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. // Хорижий филология, 2019. – №3. – Б. 62-68.

### **МЕТАФОРА КАК КОГНИТИВНЫЙ ЭЛЕМЕНТ ПЕРЕДАЧИ ЭМОЦИЙ НА ПРИМЕРЕ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА**

**Турамуратова Ирода Илхомбаевна**, *доцент Узбекского государственного университета мировых языков, PhD*  
*e-mail: [iroda1983@gmail.com](mailto:iroda1983@gmail.com)*

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
Ilhomjon To‘xtasinov CHET TILLARNI O‘QITISHDA XALQARO TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLARNI O‘QUV JARAYONIGA TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI.....	4
Rafael del Moral EL NUEVO ORDEN MUNDIAL DE LAS LENGUAS.....	10
Hamdulla Dadaboyev “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA IFODALANGAN UST KIYIM NOMALARINING HOZIRGI TURKIY TILLARGA MUNOSABATI..	13
Qudratulla Omonov “DEVONU LUG‘ATIT TURK” QO‘LYOZMASI VA MAHMUD KOSHG‘ARIYNING ILMIIY-GEOGRAFIK MEROSI HAQIDA.....	25
Светлана Борисовна Им ПРИЗНАКИ РЕКЛАМНОГО ТЕКСТА.....	33
Жамолиддин Ёқубов ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА “МУҲАББАТ” ТУРЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	36
Dilrabo Bakhronova ZOROASTRISM AND ITS ELEMENTS IN CENTRAL ASIA.....	46
Zokir Bazarov EXPLORING THE USE OF COLOR IN IDIOMS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK EXPRESSIONS REFLECTING INNER EMOTIONS.....	54
Xalimova Firuza Rustamovna KONSEPTNING LINGVOMADANIY HODISA SIFATIDA O‘RGANILISHI.....	60
Safarov Shahriyor, Shamaxmudova Aziza ACTOS DE HABLA DIRECTIVOS - COMO ACTOS QUE AMENAZAN LA IMAGEN.....	66
Ulugova Shoxida Shoxruxovna BADIY MATNNING KONSEPTUAL STRUKTURASI.....	70
Дилрабо Келдиёровна Бахронова, Дилором Нигматовна Юлдашева МОЛЧАНИЕ – ПРАГМАЛИГВИСТИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН.....	75

Sherali Ishankulovich Ertayev INGLIZ TILIDAN DARIY TILIGA KIRGAN HARBIY O‘ZLASHMA TERMINLAR.....	90
Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARIGA ISPAN TILI IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI MOBIL ILOVALAR ORQALI O‘QITISH.....	97
Ahmedova Dilfuza Rafukjanovna SON SO‘Z TURKUMI GAZETA MATNLARI O‘ZIGA XOS USLUBIY JIHATINI KO‘RSATUVCHI GRAMMATIK KATEGORIYA SIFATIDA.....	102
Oltiyev Temir Jonimboyevich ZAMONAVIY ISPAN TILIDA ASOSIY GAPLAR SEMANTIKASI VA PRAGMATIKASINING TAHLILI.....	110
Dildora Yusupova HALIMA XUDOYBERDIYEVA– SO‘Z SEZGISI YUKSAK IJODKOR.....	116
Dilorom Yuldasheva NUTQIY MULOQOTDA SUKUT HODISASI.....	121
Турамуратова Ирода МЕТАФОРА КАК КОГНИТИВНЫЙ ЭЛЕМЕНТ ПЕРЕДАЧИ ЭМОЦИЙ НА ПРИМЕРЕ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА.....	126
Турамуратова Ирода, Хамидуллаев Хасанхужа ЭФФЕКТ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА: ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ БИЛИНГВИЗМА.....	130
Фаттахова Дилорам РОЛЬ ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ОБЩЕНИЯ И КУЛЬТУРЫ.....	138
Ахмедова Мукаддас ТЕКСТ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ ИЗУЧЕНИЯ.....	142
Ахмедова Муяссар, Ахмедова Малика ТИЛ ВА МАДАНИЯТ ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАР.....	147
Bakhronova Dilrabó, Mukhamedova Mukaddaskhon ENSEÑANZA DE LAS PALABRAS COMPUESTAS EN LA LENGUA ESPAÑOLA PARA UN GRUPO DE LOS ESTUDIANTES EXTRANJEROS.....	154
Турамуратова Ирода, Мухамедова Мукаддасхон КОНЦЕПТЫ ЭМОЦИЙ В ИСПАНСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ.....	160
Сирожиддин Нурматов ПАЛИЙ, ПРАКРИТ ВА АПАБҲАРАНША ТИЛЛАРИДАГИ СОНЛАРГА ХОС ЛЕКСЕМАЛАРНИНГ	